

**MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYAGA OID HADISLARNING
HAYOTIMIZDA TUTGAN O'RNI**

Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna

*Zarmed universtitetining Ijtimoiy fanlar
kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hadisshunos ajdodlarimizdan qolgan yuksak ma'naviy-axloqiy boy meroslaridan foydalanishda Imom Buxoriy va at-Termiziy hadislaridan komil insonni tarbiyalash, ma'naviy tarbiyaning ahamiyati, har tomonlama barkamol aqlan ma'naviy jihatdan yetuk shaxsni tarbiyalashda keng foydalanishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: hadis, hadisshunoslik, odob-axloq, ta'lif-tarbiya, hadis ilmi, ma'naviy meros, hadis ilmiga oid ma'naviy-axloqiy tarbiya.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya - ma'naviy ongni bir maqsadni ko'zlab tarkib toptirish, axloqiy tuyg'ularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat. Ma'naviy axloqiy tarbiyaning maqsadi jamiyat talablariga bog'liq bo'lib, bu talablar o'z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlaraing rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma'naviy axloq va e'tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. Ma'naviy -axloqiy tarbiyaning tub moxiyati xozirgi ijtimoiy shartsharoitda mamlakatimiz istikboli va istikloli tugrisida gamgurlik qilish, uzligini anglash, Vatani va xalqining nimaga kodirligini, uz kadr kimmattini bilish, bor imkoniyatini Vatan, xalk ravnaki yulida xalol mexnat qilish, yuksak g'oya va kashfiyotlarni tugri yunaltir ylish, bu yulda fidoyi bulishdan iboratdir.

Ma'naviyat- insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iyomon e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir. Axloq esa ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi.

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda, O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'lif-tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan texnologiyalari yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish katta ahamiyatga ega. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzlusiz ta'lif tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Ma'naviy -ahloqiy tarbiyaning o'ziga hos jihatlarini yoritib beruvchi ko'plab hadisshunos olimlarimizning

hadislari rivoyatlari mavjud. Bularni chuqur o'rganib har tomonlama tahlil etsak, shaxsda ma'naviy- axloqiy fazilatlar yanada barkamol avlod bo'lib yuksalishimizga yetakchi rol o'ynaydi.

Ma'naviy axloqiy tarbiyaning ahamiyatini ta'kidlovchi hadislar Islomda axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan. Quyida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy jihatlarini ko'rsatuvchi Imom Buxoriy va Imom Termiziy hadislaridan namunalarini keltirib o'taman:

"Insonning amalini faqat niyati belgilaydi." (Imom Buxoriy) Ushbu hadis niyatning axloqiy va ma'naviy tarbiyada o'rnini ko'rsatadi. Insonning amalini niyati to'g'ri va samimiyo bo'lsa, u yaxshi hisoblanadi.

"Mening eng yaxshi sizlardan biri, odobi eng yaxshi bo'lganlardir." (Imom Buxoriy) Bu hadisda yaxshi axloq va odobning musulmonning eng yuqori fazilatlaridan biri ekanini bildiradi.

"Bir kishi o'ziga yaxshilik qilgan kishiga yaxshilik qilganida, bu uning qalbida muhabbatni kuchaytiradi." (Imom Termiziy) Hadisda odamlar o'rtasida mehr-oqibat va samimiyo aloqalarni rivojlantirishga insonlarni yaxshilikka undaydi.

"Kimki o'zining gunohlarini tan olib, Allohdan kechirim so'rasha, Allah uni kechiradi." (Imom Buxoriy) Bu hadis, to'g'ri yo'ldan qaytish, Allahga yuzlanish va kechirim so'rashning ma'naviy o'zgarishga olib kelishini ifodalaydi.

"Sabr faqatgina insonlarga berilgan eng yuqori darajadagi fazilatdir." (Imom Buxoriy) Sabr, ma'naviy kamolotga erishishda juda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

"Adolat, insonning eng olyi sifatidir. Kimki adolatli bo'lsa, u Allohning do'stidir." (Imom Termiziy) Bu hadisda adolatli bo'lishni, jamiyatda haqqoniylikni ta'minlashni va har bir insonning huquqlarini hurmat qilishni targ'ib qiladi.

"Har kimning yuragida ikkita yaxshi xislat bor: biri xayr, ikkinchisi esa ehtiyot" (Imom Termiziy) Ushbu hadisda yaxshi niyat, ehtiyotkorlik va shaxsiy mas'uliyatni rivojlantirishga urg'u berilgan.

"Musulmon, musulmonning birodari. U birini hojatmand bo'lsa, bir-biriga yordam beradi." (Imom Buxoriy) Birodarlik, o'zaro yordam va sadoqat ma'naviy tarbiyaning muhim asoslardan biridir. Bu hadislar shaxsni to'g'ri yo'lga solish, ularni axloqiy jihatdan to'liq va ma'naviy pok qilib tarbiyalashga yordam beradi. Hadislarning mazmun mohiyati shundaki, tarbiyaning turli jihatlarini ko'rsatadi. Masalan, axloqiy tarbiya, mehr-oqibat, sabr, o'zaro yordam, ota-onaga hurmat, va boshqalarga yordam berishning ahamiyatini tushuntiradi.

Hadislar bizga insoniy fazilatlarni rivojlantirish va to'g'ri yo'lida yashashni o'rgatadi. Ma'naviy-xloqiy tarbiya haqida yozilgan hadislarda insonning ichki dunyosini

shakllantirish, ijtimoiy muhitda to‘g‘ri munosabatlarni rivojlantirish, va uning jamiyatdagi mas‘uliyatini oshirishga qaratilganligini dalolat beradi. Bunday hadislar , axloqiy qadriyatlar va ma’naviyatni o‘rganish, ular orqali yaxshilikka erishish yo‘llarini ko‘rsatadi. Shuningdek, ushbu hadislar tarbiyaviy yondashuvlarning samaradorligini oshirish va axloqiy jihatdan mukammal shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ал-Бухорий хақида замондошларининг хотиралари. Шамсиддин Бобоҳоновнинг Имом Исмоил ал-Аҳорийнинг —Ал-адаб ал-муфрад(адаб дурдоналари) китоби таржимасидан олинди. – Тошкент, Ўзбекистон, 1990. 608 б.
2. Ал-Бухорий Имом. Илму маърифат нури: Сайланма ҳадислар: Илм. Ватан. Инсон. Маърифат. Матонат. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 98. - 300 б
3. G.SH. Abdixodirova ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference 110 SHAXSNI MA’NAVIY - AXLOQIY RUHDA TARBIYALASH
4. I.Karimov “Vatan va Xalq mangu qoladi” Toshkent 2010. 109-110 bet
5. S.T. Soliyeva “ Pedagogika oliy ta’lim muassasalari ma’naviy madaniyatini rivojlantirish maexanizmlarini takomillashtirish” Toshkent 2017 26 bet